



## SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2023- YIL YANVAR-MAY OYLARI




## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-may oylarida)

2023- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5787,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 55,0 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati – 33,9 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,4 mln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2022- yil

B

0,4 %


2023- yil

B


0,4 %

Yanvar-may


Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3184,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 55,0 % ni tashkil etdi.






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,4 % ni (2022- yilning yanvar-may oylarida – 4,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,3 % (3,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,1 % (19,9 %) va quyi texnologiyalisi – 71,2 % (72,1 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,4 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 8,4 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,4 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,4 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,5 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %) ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da \*




\* Yanvar-may oylari yirik korxonalar bo‘yicha


**Aroq**




**Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar**



**Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar**



**Paxta tolasi**



**Paxta chigiti**



**Kalava ip**



2023- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7,5 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 16,5 % ga ko'paygan), 0,7 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (88,5 % oshgan) hamda 16,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (45,6 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	7625	2205	-5420
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	381,3	719,0	337,7
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	6,4	7,5	1,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	30,1	16,4	-13,7
Paxta tolasi, ming t.	12,1	16,0	3,9

Yanvar-may oylari yirik korxonalar bo'yicha




### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 3,6 % ga ko'paygan, 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,3 % ni fizik hajm indeksi esa, 3,3 m ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 9,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 15,4 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 266,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 109,6 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 961,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 50,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 131,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 12,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1026,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 %, fizik hajm indeksi 61,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 114,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.







### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 107,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 % ni, fizik hajm indeksi 105,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 139,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,7 % ni tashkil etgan .


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 106,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 35,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2554,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,1 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,2 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7293,4	7224,5	- 68,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	60,4	49,1	-11,3

yanvar-may oylari yirik korxonalar bo'yicha

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %) ni tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	15,9	15,2	- 0,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,4	5,8	- 0,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 25,1 m oshgan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 3,3 % ga oshishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1224,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulush 21,2 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil  
yanvar-may

64,9%

2023- yil  
yanvar-may

76,6%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil  
yanvar-may

35,1%

2023- yil  
yanvar-may

23,4%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,8 % (2022- yil yanvar-may oylarida 82,8 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 21,4 % , Guliston shahri 21,1 %, Yangiyer shahri 13,1 % , Boyovut tumani 9,0 % hamda Sayxunobod tumani 8,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (115,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahri (277,9 %), Guliston tumani (195,7 %), Oqoltin tumani (189,1 %) hamda Sardoba tumanida (132,8 %) qayd etildi.